

**QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.04.2021.B.79.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORAQOLPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

NURABULLAYEVA GULCHEXRA KUANISHBAYEVNA

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI LIMNIK
EKOTIZIMLARIDAGI GIDROBIOTSENOZ JAMOALARI
HOLATINI EKOLOGIK BAHOLASH**

03.00.10 – Ekologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Nukus -2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Nurabullayeva Gulchexra Kuanishbayevna

Qoraqalpog‘iston Respublikasi limnik ekotizimlaridagi gidrobiotsenoz jamoalari holatini ekologik baholash..... 3

Нурабуллаева Гулчехра Куанышбаевна

Экологическая оценка состояния сообществ гидробиоценоза в лимнических экосистемах Республики Каракалпакстан..... 19

Nurabullaeva Gulchexra Kuanishbaevna

Hydrobiocenosis in limnic ecosystems of the Republic of Karakalpakstan environmental assessment of communitie..... 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 40

**QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.04.2021.B.79.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORAQOLPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

NURABULLAYEVA GULCHEXRA KUANISHBAYEVNA

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI LIMNIK
EKOTIZIMLARIDAGI GIDROBIOTSENOZ JAMOALARI
HOLATINI EKOLOGIK BAHOLASH**

03.00.10 – Ekologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Nukus -2025

Biologiya fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huziridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.4/PhD/B786 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.aknuk.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Allamuratova Ziyuar Bauaddinovna
biologiya fanlari filosofiya doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Baymuradov Xusniddin Toshboltayevich
biologiya fanlari doktori, professor

Atanazarov Kuralbay Maulenovich
Biologiya fanlari nomzodi

Etakchi tashkilot


Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.04.2021.B.79.01 Ilmiy kengashning 2025-yil 27 08 soat 12.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230100, Nukus shahri, Berdaq shox ko'chasi 41, Institut kichik majlislar zali. Tel: (+99861) 222-17-44, (+99861) 222-96-72, faks: (+99861) 222-17-44, e-mail: aknauk@mail.uz

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin № 19 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230100, Nukus shahri, Berdaq shox ko'chasi 41, Tel:+99861 222-17-44.

Dissertatsiya avtoreferati 2025yil 12 08 kuni tarqatildi.

(2025-yil 12 08 dagi № 46 raqamli reestr bayonnomasi).



Mambetullaeva Svetlana Mirzamuratovna
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
b.f.d., professor

Utemuratova Gulshirin Najimatdinovna
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash,
ilmiy kotibi, b.f.d.

Ajiev Alisher Baxtibaevich
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, b.f.d.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahon miqyosida limnik ekotizimlarning gidrologik va gidrokimyoviy barqarorligi buzilishi, har xil ekologik omillar ta'sirida gidrorejim holatining o'zgarishlari gidrobiontlar populyasiyasini son dinamikasiga salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu esa ko'l ekotizimlaridagi gidrobiotsenoz jamoalarining taksonomik tarkibi, moslashishi xususiyatlarini baholash, biologik xilma-xilligini saqlash va muhofaza qilishni talab qiladi. Bu borada ko'llar biotasining tur tarkibi, uning suksessiya holatini baholash, suv tanqisligi sharoitida suv organizmlari bioxilma-xilligini nazorat qilish va saqlab qolishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida daryo havzalarida shakllangan tabiiy va yarim tabiiy ekotizimlardagi biologik xilma-xillik obyektlarini tadqiq etish, suv ekotizimlaridagi gidrobiotsenoz jamoalarini yashash muhitlarining tasnifini ishlab chiqish, elektron-raqamli xaritalari yaratish, yo'qolib ketish arafasidagi turlari IUCN kategoriyalari asosida baholash bo'yicha keng ko'lamli tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada Janubiy Orolbo'yi mintaqasining limnik ekotizimlaridan foydalanishni optimallashtirish, ekologik omillar ta'sirida suv obyekti holatining sifat o'zgarishlarini aniqlash va intensiv antropogen bosim sharoitida suv muhiti komponentlarini baholash hamda yuzaga keladigan asosiy fon bo'lgan limnik ekotizimlarni sifat korsatkichlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish muhim ustivorlik kasb etmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda suv resurslari tanqisligi sharoitida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, gidrobiotsenoz jamoalari monitoringini amalga oshirish, limnik ekotizimlarning ekologik muvozanatini baholash mezonlari va usullari bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishga qaratilgan keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida..."ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish"¹ vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishda Qoraqalpog'iston Respublikasi limnik ekotizimlaridagi gidrobiotsenoz jamoalari holatini ekologik baholashda zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanish va, ulardan informatsion bioindikatorlar sifatida foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son «O'zbekiston-2030 strategiyasi» to'g'risidagi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-sentyabrdagi 737-son "O'zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhit monitoringi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-sentyabrdagi 500-son "Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini tartibga soluvchi ayrim me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 11-iyundagi 484-son "2019-2028-yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni».

xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi muayan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustivor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustivor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizning suv ekotizimlarining gidrobiotsenoz jamoalarining turlar xilma-xilligi va ularning miqdoriy ko'rsatkichlari sezilarli darajada pasayganligi, suv ekotizimlariga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish bo'yicha mahalliy olimlardan Mirabdullaev I.M (2020), Elmuratov A. (1996), Sultanmuratov M. (1993), Kuzmetov A. (2016), Turemuratova G.I. (2015), Mirzaxalilov M. M. (2022), Matmuratov M. (2016), Konstantinova L.G. (2020), Ginatullina E.N (2010) va boshqa olimlar tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ularda Orolbo'yi suv obyektlari, limnik ekotizimlarining ifloslanish darajasi va gidrobiotsenozlarning zamonaviy holati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari mutaxassislari Bogdanov O.P (2007), Stepanov A.L (2010), Makarov I.A (2015), Mel'nichenko I.P (2020), Yarushina M.I (2023), Chuykov Yu.S (2000), Fil'chakov V.A (1989), Saprikin V.N (1998), Erimkina T.V (2022), Genkel S.I (2020) va boshqa olimlar tomonidan limnik ekotizimlarda gidrobiotsenoz jamoalarining holatini kompleks baholash bo'yicha o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ayrim turlarning dominantlik darajasining oshishi gidrobiontlarning turli guruhlar i strukturasi ning soddalashuvini aniqlagan va limnik ekotizimlarga antropogen ta'sir sharoitida suv biotasining sifat va miqdoriy xilma-xilligi bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Xorijiy mamlakatlarda Schwoerbel J (1987), Straskraba M. (2013), Henderson-Sellers B.(2011), Horne A. J.(1985), Golterman H. L (1977), Lampert W (2011), Sommer U (2007), Gliwicz Z.M (1969), Sushenya L.M (1975), Monakov A.V (1976), Weisse.T.(2008), Clymo. R.S. (1978), Filippova S.N.(1988), Sadchikov A.P (1993) va boshqa olimlar tomonidan suv muhiti sifatining o'zgarishiga antropogen omillarning va gidrobiotsenoz jamoalarining miqdoriy dinamikasiga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlarining tematik rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvafiq «O'zbekistonning ayrim qishloq hududlarida barqaror iqtisodiy rivojlanish» (2021-2022-yillar) GIZ xalqaro loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Janubiy Orolbo'yi limnik ekotizimlarida suv sifatini yaxshilash va gidrobiotsenoz jamoalari holatini ekologik baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Janubiy Orolbo'yi mintaqasining limnik ekotizimlarining morfometrik ko'rsatkichlarini baholash (Mo'ynoq qo'ltig'i ko'li va Sharqiy Qarateren ko'li misolida);

limnik ekotizimlarning suv sifatining gidrokimyoviy ko'rsatkichlarini aniqlash;

limnik ekotizimlarda gidrobiotsenoz jamoalari (zooplankton va fitoplankton) holatini ekologik baholash va ularning tarkibiy indeksleri dinamikasi aniqlash;

Orolbo'yi mintaqasining limnik ekotizimlaridan foydalanishni optimallashtirish va ularni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida Janubiy Orolbo'yi hududida joylashgan Sharqiy Qarateren va Mo'ynoq qo'ltig'i ko'llari olingan.

Tadqiqot predmeti limnik ekotizimlarida gidrobiotsenoz jamoalari holati, suv havzalarining morfometrik, gidroekologik va suv sifati ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotni bajarishda ekologik, gidrologik usullar, shuningdek biotest va GIS dastur metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Janubiy Orolbo'yi mintaqasidagi limnik ekotizimlarining morfometrik va suv sifatining gidrokimyoviy ko'rsatkichlari baholangan va ushbu suv havzalari gidrobiont jamoalarining tarqalishi uchun qulay ekologik sharoitga ega ekanligi aniqlangan;

birinchi marotaba mahsuldorligi har xil bo'lgan limnik ekotizimlarda suv sifatini shakllanishining ekologik mexanizmlari va gidrobiontlarning mavsumiy o'zgarishlari aniqlangan;

mintaqaning o'zgaruvchan iqlim sharoitida Sharqiy Qarateren va Mo'ynoq qo'ltig'i ko'llarida gidrobiotsenoz (zooplankton va fitoplankton) jamoalarining zamonaviy taksonomik tarkibi aniqlangan;

Janubiy Orolbo'yi mintaqasi limnik ekotizimlari uchun suv havzalari ekotizimiga salbiy antropogen ta'sirni minimallashtirish va atrof-muhitni muhofaza qilishni optimallashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Limnik ekotizimlaridagi gidrobiontlarning suvlarni tozalash xususiyatlarini aniqlash, ularning suv ekotizimlarini buzilish darajasini aks ettiruvchi bioindikator sifatida foydalanish va gidrobiotsenoz jamoalarining holatini ekologik baholash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Suv havzalarida zooplankton va fitoplanktonlar tarqalishini ekologik monitoringini o'tkazish, limnik ekotizimlarida algologik va ixtiologik tadqiqotlarda foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Tadqiqot natijalarining ishonchliligi umumiy qabul qilingan klassik va zamonaviy populyatsion usullardan foydalanilganligi, olingan natijalarning indekslangan xalqaro bazalardagi jurnallarda chop etilganligi, davlat amaliy loyihalarining bajarilganligi va

amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi. Ilmiy natijalar statistik va axborot dasturlari yordamida tahlil qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qoraqalpog‘iston Respublikasi limnik ekotizimlar suvlarining sifat tarkibini shakllanishi bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Janubiy Orolbo‘yi mintaqasining iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda tabiiy muhit sifatini yaxshilashda limnik ekotizimlarning ekologik holatini prognoz qilish uchun uslubiy asos sifatida foydalanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, mintaqaning keskin kontinental sharoitida limnik ekotizimlardagi gidrobiotsenoz jamoalarining holatini baholash mezonlari va ilmiy asoslangan metodologiya usullari Janubiy Orolbo‘yi mintaqasi suv ekotizimlarining ekologik holatini monitoringini o‘tkazish, suv rusurrlaridan oqilona foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi limnik ekotizimlarining gidrobiosenoz jamoalari holatini ekologik baholash bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Limnik ekotizimlarining gidrobiotsenoz jamoalari holatini optimallashtirish va ulardan Orolbo‘yi suv havzalarini bioindikatsiya qilish sifatida foydalanish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi amaliyotida joriy etilgan va foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024 yil 29 oktyabrdagi № 02-01/18-2-3555 son ma’limotnomasi). Natijada, Janubiy Orolbo‘yi limnik ekotizimlarida gidrobiotsenoz jamoalari holatini ekologik baholash va suv havzalarini bioindikatsiya qilish sifatida foydalanish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini bergan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi limnik ekotizimiga salbiy antropogen ta’sirini kamaytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi suv vazirligining amaliy faoliyatiga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi suv vazirligining 2024-yil 8-noyabr 03/09-3-442 ma’lumotnomasi). Natijada, yer usti suv havzalari suvlarining sifatli tarkibini shakllantirish va Janubiy Orolbo‘yi suv ekotizimlarida gidrobiotsenoz jamoalari dinamikasi qonuniyatlarini aniqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, 9 jumladan, 4 xalqaro va 5 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, 109 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismda tadqiqot mavzusining dolzarbligi va ahamiyati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari asoslanadi, obykti va mavzu tavsiflanadi, tadqiqotning respublika ilm-fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatiladi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etiladi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilmasi bo'yicha ma'lumotlar ochib beriladi.

«Suv havzalarining hozirgi holatini o'rganishning dolzarb muammolari (adabiyotlar sharhi)» nomli birinchi bobda limnik ekotizimlar holatini o'rganish va zamonaviy muammolari va ularning holatini baholash mezonlari bo'yicha ilmiy adabiyotlar sharhi o'tkazildi. Hozirgi vaqtda suv ekotizimlarini tadqiq qilishning fundamental vazifalaridan biri gidrobiotsenozlarning strukturaviy va funksional barqarorligi saqlanib qoladigan antropogen yukning chegaraviy qiymatlarini miqdoriy baholash hisoblanadi. Tabiiy muhitni nazorat qilishning biotik konsepsiyasiga ko'ra, har qanday ekologik tizim uchun ko'p omilli tashqi ta'sirlarning shunday o'zgarish chegaralarini topish mumkinki, bunda fon ("sog'lom") ekotizimni impakt ("buzilgan") ekotizimdan ajratib turadigan belgilar nisbatan barqaror bo'lib qoladi.


So'nggi vaqtda tabiiy suvlarga antropogen ta'sir natijasida, suv ekotizimlarining tarkibi va tuzilishida sezilarli o'zgarishlarga olib kelmoqta. Suvning kimyoviy tarkibining shakllanishi uning geologik tuzilishi, iqlimi, atmosfera yog'inlarining sifati kabi tabiiy omillarga bog'liq hisoblanadi. Suv resurslarining cheklanganligi butun Markaziy Osiyo mintaqasining asosiy muammosi va xavfsizligi masalasidir. Suv resurslari bilan ta'minlash borasida O'zbekiston eng noqulay tabiiy sharoitda joylashgan. Hozirgi vaqtda tabiiy suv resurslariga antropogen ta'sir bosimi ostida sodir bo'ladigan jarayonlar, limnik ekotizimlarning tarkibi va tuzilishida sezilarli o'zgarishlarni amalga oshiradi.

«Tadqiqot hududining fizik-geografik tavsifi, tadqiqot materiallari va usullari» deb nomlangan ikkinchi bobda tadqiqotning asosiy usullari, hududining qisqacha tavsifi, tadqiqot materiallari va usullari taqdim etilgan. Amudaryo deltasi daryo oqimining ko'p yillik tabiiy tebranishlari ta'sirida shakllangan bo'lib, buning natijasida dengiz, daryo xarakteridagi turli jarayonlar, erozion dinamika ta'sirida delta landshafti va uning gidrologik va gidrogeologik profili ko'p sonli suv havzalari bilan shakllangan. Bu suv havzalari dengiz sathidan 53 m balandlikda (Sudoche, Sharqiy Qarateren, Ko'kchiyel, Aqchako'l) dengizoldi delta tekisligidagi ko'llardan iborat bo'lib, vaqti-vaqti bilan daryo va dengiz suvlari bilan to'lib, Ajibay, Jaltirbas qo'ltiqlari bilan bog'langan. Suv ko'p bo'lgan yillarda bu ko'llar daryolarning mo'l-ko'l oqimi bilan deyarli to'liq sho'rsizlanib, oqar suv havzalari xususiyatiga ega bo'lgan.

Tadqiqotlar davomida Sharqiy Qarateren va Mo'ynoq qo'ltig'i ko'llar gidrobiotsenozning mavsumiy xususiyatlari plankton organizmlarining sifat va son tarkibi batafsil o'rganildi. Zooplankton va fitoplankton namunalari 2020-2023-yillardagi mavsumiy ekspeditsiya davomida (yozda va kuzda) yig'ilgan


Sharqiy Qarateren, Mo'ynoq qo'ltig'i ko'llari, K-5-1D va TKS-2 kollektor suvlarining tarkibi va zaharli tuzlarining gidrokimyoviy tahlili Arinushkina (1970) usuli bo'yicha o'tkazildi. Kimyoviy-analitik tadqiqotlar yig'ilgan namunalar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti "Mineral o'g'itlar kimyosi" laboratoriyasida olib borildi.

Mo'ynoq qo'ltig'i ko'li. Ko'lning umumiy maydoni 12338 ga, suvli maydoni 4527,1 ga tashkil etadi. Mo'ynoq shahrigacha bo'lgan shimoliy qismi suv bilan to'lib, janubiy qismi esa qurib qolgan. Maksimal chuqurligi 3,5 m, ko'pchilik yerlarida chuqurlik 0,5-0,7 m.ga teng. Suv havzasining suv bilan ta'minlash manbai Glavmyaso kanali hisoblanadi (1-rasm.).



1-rasm. Mo'ynoq qo'ltig'i ko'lining (2022-2023 yy) davomida namuna olingan o'rinlari

Ko'l suvi sulfid sinfiga, natriy guruhiga, o'rtacha sho'rlanish darajasiga ega. Lekin, kelib tushadigan daryo suv oqimi pasayganligi sababli hozirgi kunda baliqchilik ahamiyatini yo'qotdi (2-rasm.).



2-rasm. Mo'ynoq qo'ltig'i ko'lining ochiq suv havzasining maydonining dinamikasi

Sharqiy Qarateren ko'li. Sharqiy Qarateren ko'li Taxtakopir tumani markazidan 55 km uzoqlikda joylashgan. Umumiy maydoni– 2169 ga bo'lib, suvli maydoni 2159,4 ga egallagan. Ko'lining maksimal chuqurligi 30 metr, minimal–1m ga teng, o'rtacha chuqurligi esa 3-5 m. Ko'l uzunligi 11,1 km, eni 2,9 km. Sho'rlanish darajasi 2,47-3,48 g/l, suvning tiniqlik ko'rsatkichi 0,5m teng (3-rasm).

Hozirgi vaqtda ko'l Jilvan kanali, K-5-1D va TKS-2 suvi bilan ta'minlanadi. Sharqiy Qarateren ko'li sharqda Beltov tepaligidan g'arbda quyilish joyigacha bo'lgan hududni egallagan Dauqara ko'llar tizimining qoldig'idir. Orol dengizi bilan bog'langan tizim Qorabayli va Qosuzyak (Quvonishjarma) tarmoqlari orqali Amudaryodan suv olgan. Ko'l ozuqa va baliq resurslariga boyligi bilan baliqchilik xo'jaligi tashkilotlarining jiddiy e'tiboriga sazovor. Shu nuqtayi nazardan, kelib chiqishi Orol dan bo'lgan bir qator gidrobiontlarni introduksiya qilish O'zbekistonning asosiy baliqchilik suv havzalari mahsuldorligini oshirish uchun yetarlicha istiqbolli yo'nalish bo'lishi mumkin. Bu tadbirlar ko'llarning biologik mahsuldorligini, natijada baliq mahsuldorligini keskin oshirish imkonini sezilarli darajada oshiradi




3-rasm. Sharqiy Qarateren ko'lining joylashish karta sxemasi

Dissertatsiyaning «Qoraqalpog'istonning o'rganilayotgan ko'llar gidrobiotsenozi jamoalarining holatini ekologik baholash» deb nomlangan uchinchi bobida o'rganilayotgan limnik ekotizimlar (Sharqiy Qarateren va Mo'ynoq qo'ltig'i ko'llar) gidrobiotsenozi jamoalarining morfometriyasi, gidrorejimi, gidrokimyoviy xususiyatlarini o'rganish, shuningdek, dinamikasini baholash bo'yicha tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Mo'ynoq qo'ltig'i ko'lga 2010-2024yillar davomida kelib tushgan suv oqimimini past ko'rsatkich 2021-yil 3,95 mln.m³ va eng yuqori suv oqimi 2016-yil 65,90 mln.m³ qayd etilgan. Xuddi shu sabablarga ko'ra, ko'lining gidrologiyasi va morfometriyasi doimiy bo'lib qolmagan (4-rasm). Ko'l maydoni 2017-yil

1018,4ga egalagan bolsa, 2021-yili 602,5 ga teng bolgan. Bu ekotizimda asosan yuksak darajali o'simliklardan rostnik (*Phragmites australis*), ragoza (*Tupha*), qamish (*Scirpus*) turlari dominantlik etadi.



4-rasm. Mo'ynoq qoltig'i ko'liga (2010-2024 yillar) davomida kelib tushgan suv oqimi (mln.m³)

Sharqiy Qarateren ko'lining 2019-yili Jilvan kanali (53,74 mln.m³), K-5-1D (25,60 mln.m³), TKS-2 (13,16 mln.m³), 2020-yili Jilvan kanali (26,79 mln.m³), K-5-1D (21,83 mln.m³), TKS-2 (6,56 mln.m³), 2021-yili Jilvan kanali (22,19 mln.m³), K-5-1D (3,4 mln.m³), TKS-2 (2,4 mln.m³), 2022-yili Jilvan kanali (26,05 mln.m³), K-5-1D (4,56 mln.m³), TKS-2 (2,1 mln.m³), 2023-yili Jilvan kanali (41,10 mln.m³), K-5-1D (4,25 mln.m³), TKS-2 (1,53 mln.m³), 2024-yili Jilvan kanali (47,18 mln.m³), K-5-1D (7,34 mln.m³), TKS-2 (3,54 mln.m³) tashkil etgan (5-rasm).

Suv havzasi yillar davomida sholi dalalaridan va sug'orish kanallarining oqova suvlari bilan ta'minlangan. Ko'lining shimolida ikkita nasosli (quvvati 5 m³/s) nasos stansiyasi qurilgan bo'lib, u suvni 27 m ga ko'taradi va ko'lda suv almashinuvini ta'minlaydi. Suv ta'minotining asosiy manbalari yer osti va chiqindi suvlaridir. Ko'l suvinig 5-6 metrdan ko'proq orqaga chekinishi tufayli qirg'oq zonasining 70 foizi qamishzorlar bilan qoplangan. Ayrim yerlarida qamish osmagan qirg'oq nuqtalari qayd etilgan. Shuningdek, suv osti o'simliklarining juda kam rivojlanishi ko'zatilmoqda, suv osti ekotizimida dengiz ruppiyasi (*Ruppia maritima*) o'sadi, ular qirg'oq qismidagi ko'l perimetri bo'ylab 5% dan oshmaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Sharqiy Qarateren ko'li suvi yuqori minerallashuvga darajasiga ega, pH ko'rsatkichi 8 ga teng, sho'rlanish tipi (xlorid-sulfatli), quruq qoldiq 4,239%, zaharli bo'lmagan tuzlari Ca(HCO₃)₂-0,779%, CaSO₄-0,436%, o'rtacha zaharli tuzlar Na₂SO₄-0,555%, NaCl-0,968%, zaharli tuzlari MgSO₄-1,263% ekanligi aniqlandi (1-2-jadvallar).

1-jadval


Sharqiy Qarateren ko'l suvining kimyoviy tarkibi (2022-2024 yy.), gr/l/mg/ekv

Suv obyekt	Quruq qoldiq %	CO ₃ ⁻ % mg/ekv	Umumiy HCO ₃ ⁻ % mg/ekv	Cl ⁻ % mg/ekv	SO ₄ ⁻ % mg/ekv	Ca % mg/ekv	Mg % mg/ekv	Anion-kationlar % mg/ekv	Na+K bo'yicha Farqi		Komponentlar yig'indisi %	Sho'rlanish Turi
									mg/ ekv	%		
Sharqiy Qarateren ko'l	4,239	-	<u>0,586</u> 9,6	<u>0,568</u> 16,0	<u>1,680</u> 35,0	<u>0,321</u> 16,0	<u>0,255</u> 21,0	<u>60,6</u> 37,0	23,60	0,59	4,00	Xlorid-sulfatli
K-5-1D kollektor	0,752	-	<u>0,132</u> 2,16	<u>0,099</u> 2,8	<u>0,288</u> 6,0	<u>0,068</u> 3,4	<u>0,066</u> 5,4	<u>10,96</u> 8,8	2,16	0,054	0,707	Xlorid-sulfatli
TKS-2 kollektor	3,571	-	<u>0,390</u> 6,4	<u>0,355</u> 10,0	<u>1,584</u> 33,0	<u>0,261</u> 13,0	<u>0,134</u> 11,0	<u>49,4</u> 24,0	25,4	0,635	3,359	Xlorid –sulfatli

2-jadval


Sharqiy Qarateren ko'l suvining toksik tuzlar ko'rsatkichlari (2022-2024 yy.)

Suv obyekt	Quruq qoldiq %	Tuzlar, summasi %	Zaharsiz tuzlar, %		O'rtacha zaharli tuzlar,%				Zaharli tuzlar,%				
			Ca (HCO ₃) ₂	CaSO ₄	Na ₂ SO ₄	NaCl	NaHCO ₃	CaCl ₂	MgSO ₄	MgCl ₂	Na ₂ CO ₃	MgCO ₃	Mg(HCO ₃) ₂
Sharqiy Qarateren ko'l (loy)	1,339	1,266	0,032	0,143	0,419	0,146	-	-	0,526	-	-	-	-
Sharqiy Qarateren ko'l (suvi)	2,692	2,55	0,292	0,776	-	0,036	-	-	0,998	0,448	-	-	-



5-rasm. Sharqiy Qarateren ko'liga 2019-2024 yillarda tushgan suv oqim mug'dori (oqim mln.m³)


Shuni ta'kidlash mumkinki, umumiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, ko'lining maydon dinamikasi va chuqurlik ko'rsatkichlari bo'yicha, ko'p suvli yillarda maydoni 4000 ga, ortacha suvli yillarda 3523 ga, kam suvli yillarda esa ko'lining maydoni 2159,4 ga ni tashkil qilgan. Ko'lining chuqurligi kelib tushadigan suv oqimining gidro rejimiga qarab ham o'zgaradi (6-rasm).



6-rasm. Sharqiy Qarateren ko'lining umumiy xarakteristika


Mo'ynoq qo'ltig'i ko'lining ekologik holati suv havzasi va suv sathini saqlab turishda mahalliy karpsimon fitofil baliq turlari uchun qulay hisoblanadi. Ko'ldagi aklimatizatorlardan o'simlikxo'r baliqlar, ayniqsa oq amur va oq lesh baliqlari uchun oziqlanish va tarqalishiga sharoitlari mavjud. Tadqiqotlar davomida Mo'ynoq qo'ltig'i ko'li suvining minerallashuv darajasi yuqori, pH-8 ga teng, mineralizatsiya tipi (xlorid-sulfatli) ekanligi aniqlandi.

Tadqiqotlar natijasida Mo'ynoq qo'ltig'i ko'lida 614 takson aniqlandi. Shulardan diatom suv o'tlari-*Bacillariophyta* (201-32,7%), ko'k yashil-*Cyanophyta* (120-19,5%), yashil-*Chlorophyta* (113-18,4%), oltin tusli-*Chrysophyta* (84-13,68%), pirofit-Pyrrophyta (68-11,07%), evglenofitlar-*Euglenophyta* (28-4,56%) ekanligi kuzatildi (7-rasm).




7-rasm. Mo'ynoq qo'ltig'i ko'li fitoplanktonning asosiy taksonomik guruhlari nisbati

Tadqiqot davomida yoz faslida ko'lda ko'k yashil suv o'tlari-*Microcystis*, *Merismopidia*, *Oscillatoria*, *Lyngbia*, *Stigonematales*, *Pasherinema*, *Anabaena* vakillari son jihatdan 2735000 mln dona/m³ va biomassa 165,5 g/m³ ega bo'lgan bo'lsa, diatom suv o'tlaridan *Melosira*, *Gomphonema*, *Cyclotella*, *Coscinodiscus*, *Chaetoceros*, *Synedra* 71215 mln dona/m³ va biomassa 2,38 dan-8,86 g/m³ ekanligi aniqlandi (8-rasm).



8-rasm. Fitoplankton ko'k yashil (*Cyanophyta*) suv o'tlari

Olingan natijalarni solishtirish 2020-2023-yillar davomida pelagik planktonning sifat tarkibi, tuzilishi va miqdoriy ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli o'xshashliklarni ko'rsatadi. O'tkazilgan tadqiqotlar davrida yoz, kuz mavsumlari tahlillar shuni ko'rsatdi, zooplanktonning umumiy 24, jumladan 14 turdagi kolovratkalar (*Rotifera*), 5 shoxdor mo'ylovlilar (*Cladocera*), 5 kurakoyoqlilar (*Copepoda*) turlari qayd etildi (9-rasm).



9-rasm. Tadqiqot olib borilgan ko'llarning zooplanktonning asosiy taksonomik guruhlari nisbati

Monitoring davomida Sharqiy Qarateren ko'li gidrobiotsenoz jamoalari shulardan zooplankton turlarining ko'p turliligi bilan ajralib turadi. Bu esa ko'l suvining gidrologik rejimi barqaror ekanligi bilan izohlanadi (3-jadval).

3-jadval

Zooplanktonning faunistik xilma-xilligi (turlari soni)
(Y-yoz, K-kuz)

Ko'l nomi	2021		2022		2023	
	Yoz	Kuz	Yoz	Kuz	Yoz	Kuz
Sharqiy Qarateren ko'li	12	9	14	8	4	8
Mo'ynoq qo'ltigi ko'li	2	1	6	-	11	-
jami	14	10	20	8	15	8

Sharqiy Qarateren ko'lida qayd etilgan zooplankton turlari chuchuk suv komplekslari vakillari bo'lib, faqatgina 2022-yil kuzida galofil turlarning ulushi 12% ni tashkil etgan bo'lsa, Mo'ynoq ko'rfazida 2022-yil yozida mos ravishda 15% ni tashkil etdi (4-jadval).

4-jadval

Zooplanktonlarning tur tarkibida galofil turlar ulushi, (%)
(Y-yoz, K-kuz)

Ko'l nomi	2021		2022		2023	
	Yoz	Kuz	Yoz	Kuz	Yoz	Kuz
Sharqiy Qarateren ko'li	2	0	2	12	1	5
Mo'ynoq qo'ltig'i ko'li	-	-	15	-	-	-

Zooplanktonning eng ko'p turlari Mo'ynoq qo'ltig'i ko'lida kuzatildi. O'tkazilgan monitoring davomida Sharqiy Qarateren ko'li zooplanktonining turlar tarkibida turlar xilma-xilligi sezilarli darajada o'zgarmaganligi kuzatildi, bu ularning gidrologik rejimi ancha barqarorligi bilan izohlanadi. Zooplankton turlarining xilma-xilligi, odatda, bahordan kuzga qarab kamayib bordi. Bu suv havzalari minerallashuvining mavsumiy dinamikasi va yozda zooplanktonlar bilan oziqlanadigan ko'plab baliqlarning paydo bo'lishi bilan ham bog'liq.

Taksonomik nuqtai nazardan, kolovratkalar turlarining soni ko'pligi bilan ajraladi, 2023-yilda Mo'ynoq qo'ltig'i ko'lida faqat qirg'oq qismidan olingan namunalar kamligi sababli teskari tendensiya kuzatildi. Mo'ynoq qo'ltig'i ko'lida zooplanktonning eng yuqori ko'rsatkichi yozda 70,0 ming ekz/m³ va kolovratka-*B. plicatilis* galofil turi 68,9 ming ekz/m³ qayd etildi. Zooplankton biomassasi ko'rsatkichlari avgust oyida eng yuqori ko'rsatkichiga ega bo'lib, Mo'ynoq qo'ltig'i ko'lida 125 mg/m³, Sharqiy Qarateren ko'lida 231 mg/m³, Mo'ynoq qo'ltig'i ko'lida *Rotifera* zooplankton biomassasi 83%, Sharqiy Qarateren ko'lida esa *Copepoda* 53% va *Cladocera* 31% ni tashkil etdi. Oldingi olib borilgan tadqiqotlar natijalari bilan taqqoslaganda, plankton organizmlar: kolovratka turlari kamayganligi aniqlandi. Ko'rinib turibdiki, ushbu turlarning yo'qolib ketishi so'nggi yillarda suv havzasi minerallashuvining yomonlashishi bilan izohlanadi. Shunday qilib, gidrobiotsenoz jamoasi ko'rsatkichlari bo'yicha Sharqiy Qarateren va Mo'ynoq qo'ltig'i ko'li limnik ekotizimlari tabiiy holatini saqlab qolmoqda, bu esa ularni ekologik tadqiqotlarni o'tkazishda pilot suv havzalari sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan «Qoraqalpog‘iston Respublikasi limnik ekotizimlaridagi gidrobiotsenoz jamoalari holatini ekologik baholash» mavzusidagi dissertatsiya bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

XULOSALAR

1. Mo‘ynoq qo‘ltig‘i ko‘lining suv maydoni 4527,1 gektarni, Sharqiy Qarateren ko‘lining suv maydoni 2159,4 gektarni tashkil etib, ushbu suv havzalari gidrobiontlar jamoalarining tarqalishi uchun qulay ekologik sharoitga ega ekanligi aniqlandi.

2. Suv havzalaridagi suv sathining o‘zgarishi kabi omillarning ta’siri natijasida Sharqiy Qarateren ko‘lida zooplanktonning 28 turi qayd etilgan. Ulardan: 13- kolovratkalar (*Rotifera*), 7- shoxdor mo‘ylovlilar (*Cladocera*), 8- kurakoyoqlilar (*Copepoda*). Mo‘ynoq qo‘ltig‘i ko‘lida zooplanktonning 24 turi qayd etildi, ulardan: 14- kolovratkalar (*Rotifera*), 5 - shoxdor mo‘ylovlilar (*Cladocera*) va 5 - kurakoyoqlilar (*Copepoda*).

3. Tadqiqot olib borilgan suv havzalarida zooplanktonlarning 8 ta tur: ulardan 3 turi kolovratkalarga (*Rotifera*) *Brachionus angularis* Gosse, *Br. plicatilis*, *Br. calyciflorus*; 2 tur shoxdor mo‘ylovlilar (*Cladocera*) *Chydorus sphaericus*, *Moina sp*, 3 tur kurakoyoqlilar (*Copepoda*) *Acanthocyclops trajani* Mirabdullaev et Defaye, *Thermocyclops taihokuensis* Harada, *Ergasilus sieboldi* Nordman galofil turlari aniqlangan

4. Mo‘ynoq qo‘ltig‘i ko‘lida 614 ta takson, ulardan diatom suvo‘tlar - *Bacillariophyta* (201-32,7%), ko‘k-yashil suvo‘tlar - *Cyanophyta* (120-19,5%), yashil suvo‘tlar - *Chlorophyta* (113-18,4%), tillarang suvo‘tlar - *Chrysophyta* (84-13,68%), pirofit suvo‘tlar - *Pyrrophyta* (68-11,07%), evglenofit suvo‘tlar - *Euglenophyta* (28-4,56%) va Sharqiy Qaraterena ko‘lida 779 ta takson aniqlandi. Ulardan ko‘k-yashil - *Cyanophyta* (298-38,25%), diatom suvo‘tlar - *Bacillariophyta* (150-19,25%), yashil - *Chlorophyta* (124-15,91%), tillarang - *Chrysophyta* (91-11,68%), pirofitlar - *Pyrrophyta* (68-8,72%), evglenofitlar - *Euglenophyta* (48-6,16%) aniqlandi.

5. Mo‘ynoq qo‘ltig‘i ko‘lining holati Amudaryodan keladigan suv miqdoriga bog‘liqligi, xususan, kam suvli yillarda suvning minerallashuv darajasi ortishi gidrobiotsenoz jamoalariga katta ta’sir ko‘rsatdi. Gidrobiontlarning xilma-xilligi toza suvlarda maksimal darajada, gipogalin diapazonida mineralizatsiya ortishi bilan sezilarli darajada kamayganligi isbotlandi.

6. Mo‘ynoq qo‘ltig‘i ko‘li suvi yuqori minerallashuvga, pH ko‘rsatkichi 8ga teng, sho‘rlanish turi (xlorid-sulfatli), quruq qoldiq 6,695% ga teng, zaharsiz tuzlar $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$ - 0,454%, CaSO_4 - 2,545%, ortasha zaharli toksik tuzlar - NaCl - 0,097%, zaharli tuzlar MgSO_4 - 2,502%, MgCl_2 0,782% tarkibga ega, shuningdek, Sharqiy Qarateren ko‘li suvining sho‘rlanish turi (xlorid-sulfatli), quruq qoldiq 4,239%, zaharsiz tuzlar $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$ - 0,779%, CaSO_4 - 0,436%, o‘rtacha zaharli tuzlar Na_2SO_4 - 0,555%, NaCl - 0,968%, zaharli tuzlar MgSO_4 - 1,263% ekanligi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.04.2021.В.79.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ НАУЧНО-
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ИНСТИТУТ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА И
АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

НУРАБУЛЛАЕВА ГУЛЧЕХРА КУАНЫШБАЕВНА

**ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА СОСТОЯНИЯ СООБЩЕСТВ
ГИДРОБИОЦЕНОЗА В ЛИМНИЧЕСКИХ ЭКОСИСТЕМАХ
РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН**

03.00.10 – Экология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Нукус-2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В 2024.4. PhD/B786

Диссертация выполнена в Каракалпакском институте сельского хозяйства и агротехнологий.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.aknuk.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net)

Научный руководитель:

Алламуратова Зийуар Бауатдиновна
PhD биологических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Баймуродов Хусниддин Тошболтаевич
доктор биологических наук, профессор

Атаназаров Куралбай Мауленович
кандидат биологических наук

Ведущая организация:

Ургенчский государственный университет

Защита диссертации состоится «24» 08 2025 года в 12⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.04.2021.B.79.01 при Каракалпакском научно-исследовательском институте естественных наук (Адрес: 230100, г. Нукус, Проспект Бердаха, 41, малый конференц-зал института). Тел.: (+99861) 222-17-44, (+99861) 222-96-72, факс: (+99871) 222-17-44, e-mail: aknuk@mail.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского научно-исследовательского института естественных наук (зарегистрировано за № 19). (Адрес: 230100, г. Нукус, Проспект Бердаха, 41. Тел.: +99861 222-17-44)

Автореферат диссертации разослан: «12» 08 2025 года.

(Реестр протокола рассылки № 46 от «12» 08 2025 года).



Мамбетуллаева Светлана Мирзамуратовна
Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор биологических наук, профессор

Утемуратова Гулширин Нажиматдиновна
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор биологических наук

Ажиев Алишер Бахтыбаевич
Председатель Научного семинара при Научном
совете по присуждению учёных степеней,
доктор биологических наук, доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день в мировом масштабе нарушение гидрологической и гидрохимической устойчивости лимнических экосистем, изменения состояния гидрорежима под влиянием различных экологических факторов оказывают негативное влияние на динамику численности популяции гидробионтов. Это требует оценки таксономического состава, адаптационных особенностей сообществ гидробиоценозов озерных экосистем, сохранения и охраны их биологического разнообразия. В связи с этим видовой состав биоты озер, оценка состояния сукцессии, контроль и сохранение биоразнообразия водных организмов в условиях дефицита воды имеют важное научное и практическое значение.

В ведущих научных центрах мира проводятся широкомасштабные исследования по изучению объектов биоразнообразия в природных и полуприродных экосистемах, сформированных в речных бассейнах, разработке классификации среды обитания сообществ гидробиоценозов в водных экосистемах, созданию электронно-цифровых карт, оценке исчезающих видов на основе категорий МСОП. В связи с этим, оптимизация использования лимнических экосистем Южного Приаралья, определение качественных изменений состояния водного объекта под воздействием экологических факторов и оценка компонентов водной среды в условиях интенсивного антропогенного давления, а также проведение исследований по совершенствованию качественных показателей лимнических экосистем, являющихся основным фоном возникновения, являются важными приоритетами.

В последние годы в нашей республике проводятся широкомасштабные научно-исследовательские работы, направленные на стабилизацию экологической ситуации в условиях дефицита водных ресурсов, осуществление мониторинга сообществ гидробиоценозов, разработку мер по критериям и методам оценки экологического баланса лимнических экосистем.

В последние годы в нашей республике проводятся широкомасштабные научно-исследовательские работы, направленные на стабилизацию экологической ситуации в условиях дефицита водных ресурсов, осуществление мониторинга сообществ гидробиоценозов, разработку мер по критериям и методам оценки экологического баланса лимнических экосистем. В Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан определены задачи по «...созданию эффективных механизмов внедрения научных и инновационных достижений в практику»¹. В реализации этих задач использование современных методов исследования экологической оценки состояния сообществ гидробиоценозов в лимнических экосистемах Республики Каракалпакстан и их использование в качестве

¹ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан».

информационных биоиндикаторов, сохранение биоразнообразия имеет актуальное научно-практическое значение.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач Указа Президента Республики Узбекистан, от 11.09.2023 г. № УП-158 «О стратегии «Узбекистан – 2030», Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан за № 737 от 5 сентября 2019 года «О совершенствовании системы мониторинга окружающей природной среды в Республики Узбекистан», Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан за № 500 от 27 сентября 2023 года «Об утверждении некоторых нормативно-правовых актов, регулирующих деятельность Инспекции по контролю за безопасностью объектов водного хозяйства и водопользованием», Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан, от 11.06.2019 г. № 484 «Об утверждении Стратегии по сохранению биологического разнообразия в Республике Узбекистан на период 2019-2028 годы», а также других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

